

YANGILANGAN KONSTITUTSIYA VA UNDAGI IJTIMOIY MUHOFAZA MASALALARI

Norjigitova Xumora Norjigit qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali

Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi;

E-mail: norjigitovaxumora3@gmail.com

Ungalova Munisa Saydazim qizi

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali

Ijtimoiy ish ta'lim yo'nalishi talabasi;

E-mail: ungalovamunisa@gmail.com

Ilmiy rahbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

E-mail: jahongir.5066@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada Konstitutsiya haqida tushuncha, Konstitutsiya va ijtimoiy muhofazasi masalalari, ayrim moddalar tahlili, taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, ijtimoiy davlat, ijtimoiy muhofaza, inson-jamiyat-davlat tamoyili, ijtimoiy yordam, ijtimoiy ta'minot, inson qadr-qimmat, inson huquq va erkinliklari

*“Konstitutsiya - erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir”
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev***

KIRISH

Avvalo, Konstitutsiya o'zi nima? degan savol tug'iladi. Konstitutsiya (lotincha: *constitutio* — „tuzilish“, „tuzuk“) — bu davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

Konstitutsiya bizga nimaga kerak? Konstitutsiyaning yangilanishidan ko'zlangan asosiy maqsad nimada?

Konstitutsiya har qanday davlatning asosiy qonunidir. U jamiyat uchun ishlashi, uning talab va ehtiyojlarini qondirishi kerak. Konstitutsiyaning mazmuni — mamlakatning davlat, ijtimoiy va siyosiy hayotining barcha asoslarini belgilashdan iborat. Boshqacha aytganda, u huquq tizimining asosi va poydevori bo'lib, boshqa barcha qonunlar uning asosida quriladi. Lekin, shu bilan birga, Konstitutsiya qat'iy, o'zgarmas hujjat emas. Agar Konstitutsiyani o'zgartirish zarurati paydo bo'layotgan bo'lsa, demak, bu jamiyatning evolyutsion rivojlanishiga asoslangan holda, O'zbekistonda yaqin kelajakda bo'lgan maqsadlarimizni belgilab olish, ochiq va ishonchli davlat qurish uchun hayotiy zaruratdan dalolat beradi.

Bugun biz dunyoda keskinlik kuzatilayotganiga guvoh bo'lmqdamiz, buning natijasida geosiyosiy vaziyat yanada murakkablashdi, bu tahdidlarning kuchayishiga olib keldi, bularning barchasi O'zbekiston davlatchiligini yanada mustahkamlashini taqozo etmoqda. Konstitutsiya davlatchilikning o'zagi va mazmuni ekanini inobatga olib, uni mustahkamlashimiz kerak. Dunyodagi mavjud tahdidlar va vaziyatni sinchiklab tahlil qilib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, davlat birligimizni mustahkamlash, fuqarolarda g'amxo'rlik ko'rsatishga qaratilgan islohotlarni naqadar muhim ekanini ichki auditoriyamizga yetkazish zarur.

Yangilangan Konstitutsiyamizda har bir modda barchaga tushunarli, aniq va lo'nda bayon etilgani va sinchiklab ishlab chiqilganini ko'rishimiz mumkin. Bu o'zgarish va qo'shimchalar O'zbekistonni yanada barqaror rivojlantirish, turli tahdidlarga qarshi tura oladigan salohiyatini mustahkamlashga qaratilgandir.

Xalq va davlat hokimiyati organlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot yo'lga qo'yilgani natijasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga munosabat tubdan o'zgardi. Oshkoralik siyosati davlat organlarining jamoatchilik fikriga zudlik bilan munosabatda bo'lib, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni tezkorlik bilan hal etishiga olib keldi.

Zamonaviy O'zbekiston tarixida ilk marotaba xalqning o'zi konstitutsiyaviy islohotlarda faol ishtirok etayotgan katta ahamiyatga ega. Bu esa ochiq va demokratik mamlakat taraqqiyot yo'lini belgilab beradi, eng muhimi, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ana shu takliflar asosida shakllantirilgani, bularning barchasi Yangi Konstitutsiya tom ma'noda Xalq Konstitutsiyasiga aylanib bormoqda.

Qonunchiligimizga ko'ra, konstitutsiyani qabul qilish bo'yicha referendum o'tkazilgandan keyin hech qanday qo'shimcha hujjat qabul qilish, parlamentda muhokama qilinishi va prezident tomonidan imzolanishi shart emas, chunki umumxalq ovozi yakuniy qarorni belgilab berdi.

Mamlakatimizda yangilangan Konstitutsiya bevosita xalq tomonidan qabul qilingan birinchi huquqiy hujjat bo'ldi. Referendumdagi har bir ovoz katta ahamiyatga ega va yuridik kuchga ega bo'ldi. Afsuski, korrupsiya, monopoliya, mas'uliyatsizlik, layoqatsizlik, mahalladoshlik, beparvolik kabi illatlar xalqimiz farovonligiga, butun davlatning barqaror rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganini bugun ochiq tan olamiz. Konstitutsiyamizni esa bugun o'zgartirmasak, uni zamon talablariga javob beradigan me'yorlarga moslashtirmasak, jamiyatimizni zanglagan "zangi"dan qutula olmaymiz, bundan tashqari, raqobatbardosh, zamonaviy, eng ilg'or davlat bo'lishimiz uchun ko'p yillar kerak bo'ladi. Belgilangan maqsad — raqobatbardosh, zamonaviy, eng ilg'or davlatga aylanish, bu afsona emas, bu haqiqatga intilishimiz kerak. Biz qurayotgan jamiyatda inson omili muhim o'rin tutadi, bu esa inson manfaatlarining ustuvorligiga asoslanadi. Yangilangan Konstitutsiya "inson-jamiyat-davlat" tamoyiliga asoslanadi, chunki unda barcha toifalar — yoshlar, ayollar, nogironlar, o'qituvchilar va hatto jinoyatchilar (adashgan fuqarolar)ning huquq va manfaatleri o'z ifodasini topgani bilan amaliy ahamiyatga ega.

"Konstitutsiyamizda belgilangan qonun ustuvorligi prinsipi jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, barcha islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim kafolatidir".

Konstitutsiya- mamlakat rivoji va aholi farovonligiga xizmat qiladi. Konstitutsiya loyihasi o'zining jamiyatni yangilash, davlatimizni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish kabi tarixiy vazifani o'z ichiga olgan desak mublag'a bo'lmaydi. Konstitutsiyamizning ayrim to'g'ridan to'g'ri ijtimoiy hamkorlik va muhofaza masalalari keltirilgan moddalarni tahlil qilamiz.

Konstitutsiyamizning 1-moddasida: "O'zbekiston- boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" etib belgilangan.

"Ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishini nazarda tutadi. U shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratishni talab qiladi. Shu bilan birga, ishsizlikdan himoyalani, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir"

Ushbu moddada O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi orqali, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart- sharoit yaratish majburiyatini olgan. Bu mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyotning kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llab-quvvatlashga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va adolatli pensiya tizimi kabilarni rivojlantirishni anglatadi.

43-modda.

Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi.

Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi.

Bu modda ijtimoiy muhofaza tizimimizdagi fuqarolarning bandligini ta'minlash, fuqarolarni kasbga qayta tayyorlash, ishsizlik kabi bir qator muammolarni oldini olishga yo'naltirilgan.

Bu modda amalda qo'llanilishi bo'yicha ko'plab hujjatlar qabul qilingan. Masalan:

- "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni,
- "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni,
- "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni,
- "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb hunarga o'qitish tizimini takomillashtirish hamda mehnat organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori qabul qilingan.

44-modda.

Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi.

Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

Bu modda ijtimoiy muhofaza tizimimizda bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan majburiy mehnat, bolalar majburiy mehnati muammolarini oldini olishga yo'naltirilgan. Bunda majburiy mehnat, bolalarning barkamol rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladigan har qanday bolalar mehnati taqiqlanishi belgilab qo'yilgan.

Bolalar majburiy mehnati konstitutsiya darajasida taqiqlanishi iqtisodiyot va ijtimoiy soha rivojlanishiga, bolalarning hayot sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Bu modda amalda qo'llanilishi bo'yicha ko'plab hujjatlar qabul qilingan. Masalan:

- "O'zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori,

- "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori.

46-modda.

Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega.

Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas.

Bu modda ijtimoiy muhofaza tizimimizda qariyalarga, mehnat qobiliyatini yo'qotgan fuqarolarga, kam ta'minlangan aholi qatlamlariga davlat tomonidan ijtimoiy ta'minot tizimi tashkil etilgan. Bundan maqsad aholining bu toifalariga moddiy tarafdin yordam ko'rsatish, pensiyalar va nafaqalar miqdorini belgilash vazifasini o'z ichiga oladi.

Bu modda amalda qo'llanilishi bo'yicha ko'plab hujjatlar qabul qilingan. Masalan:

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni,

- "Pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlardan chegirma qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida" O'zbekiston Respublikasi Moiya Vazirining buyrug'i.

76-modda.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.

Bu moddada ijtimoiy muhofaza tizimimizdagi oilaning mustahkamligi, oilaning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolari va nikohga oid muammolarni hal etishga yo'naltirilgan.

Bu modda qo'llanilishi bo'yicha ko'plab hujjatlar qabul qilingan. Masalan:

- "O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi".

77-modda.

Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta’lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta’minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi.

Bizning davlatimizda ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetishiga qadar farzandlarini boqishi, ta’lim-tarbiya berishi, o‘qitishi, sog‘lig‘iga e’tibor qaratishi va moddiy ta’minotini har tomonlama ta’minlashi zarurdir. Agar ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga keladigan bo‘lsak, bu bolalarni davlat o‘z zimmasiga olgan holda ularni tarbiyalashi, boqishi, moddiy tomondan ta’minlashi, ularning ta’limiga e’tibor qaratishi juda ham muhim hisoblanadi.

Bu modda amalda qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘plab hujjatlar qabul qilingan. Masalan:

- "Vasiylik va homiylik to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni,

- "Yetim bolalar va ota ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy qo‘llab- quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori,

- "Yetim bolalar va ota ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan "Mehr daftari" tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori.

79-modda.

Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Bu moddada aytilganidek, davlat yoshlarni huquqlarini himoya qilinishini ta’minlaydi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rnini, salohiyatini ro‘yobga chiqarishga, yoshlarning ishga joylashishiga, bandligi va uy-joy bilan ta’minlanishiga, sog‘lig‘ini saqlashga, ularga davlat va jamiyat taraqqiyotini rivojlantirishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

Bu modda amalda qo‘llanilishi bo‘yicha ko‘plab hujjatlar qabul qilingan. Masalan:

- "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni,

- "O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni va boshqa bir qancha qonun hujjatlari qabul qilingan.

Xulosa o'rnida Prezidentimizning "Afsuski, biz Asosiy qonunimiz haqida Konstitutsiya bayramiga o'n-o'n besh kun qolganda gapira boshlaymiz. Holbuki, Konstitutsiyani, uning g'oyalarini o'rganish va o'rgatish barchamizning doimiy vazifamiz bo'lmog'i zarur" so'zlarini eslash joiz deb bilaman. To'g'ri biz Konstitutsiyamizni faqatgina bayramga yaqin kunlardagina eslaymiz. Vaholangki, biz Konstitutsiyamizni hayotga tadbiiq etishni to'g'ri yo'lga qo'yishimiz kerak. Buning uchun tadbirlarni Konstitutsiya bayrami atrofida emas, balki yil davomida o'tkazish zarur. Zero, insonlarning huquqiy ongi, madaniyati shakllansagina hayotdan mamnun bo'lib yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: -2023
2. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" _Shavkat Mirziyoyev_T.-"O'zbekiston"-2019
3. Prezident maruzalari:
<https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/21/president-suggestions/>
https://constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil